



KUSHON DAVLATIDA IJTIMOIIY IQTISODIY HAYOT. (KANISHKA HUKMRRONIGI DAVRIDA)

Uraimjonova Malika Qahramon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti
@malikaurimjonova0109@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7935670>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil
Ma'qullandi: 13-May 2023 yil
Nashr qilindi: 15-May 2023 yil

KEY WORDS

Eski Termiz, madaniy yodgorliklar, pul islohoti, suyak kandakorligi, dehqonchilik, Peshovar, Kudzula Kadfiz, Kanishka hukmdorligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Kushon davlatida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kundalik hayotga ta'siri yuzasidan so'z yuritilgan bo'lib, hukmdor Kanishka davrida Kushon davlatining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rnini va ahamiyati yuzasidan fikrlar mavjud. Shuningdek, maqolada Kushon davlatining iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishiga sabab bo'luvchi pul islohoti, yozuvning tatbiq etilishi, poytaxtning ko'chirilishi kabilar ham inobatga olinib, ilmiy jihatdan tatbiq etilgan.

Kushon davlatining tashkil topib, imperiya darajasiga ko'tarilgunga qadar davlat siyosatining isloh qilinishi, shuningdek davlat boshqaruvi tasartufida bo'lgan yerlarda, shu jumladan, Xitoy, Hindiston, Rim imperiyasi hududlarida ham sabdo-sotiq, madaniy hunarmandchilik shakllari keng tarzda rivojlana borgan deyish mumkin. Kushon davlati asoschilari ko'chmanchi yuechji qabilalarining bosqinlariga barham bergandan so'ng, mavjud Baqtriya davlati hududlarini idora qilish va madaniy hayotni nazorat qilish kabi huquqlarni qo'lga kiritdi. Umumiy olib qaraganda Kushon davlati tashkil topishi va impetiya darajasiga ko'tarilgunga qadar ko'plab hukmdorlar amaliy boshqaruvda o'zlarining siyosatini amalga oshirganlar. Shuning uchun ham bugungi kun tarixchi olimlari ularning hari biriga alohida ta'rif berish, davlat miqyosida amalga oshirgan islohotlarida ham faolligini baholashmoqda. Bunda Kushon davlatining dastlabki hukmdorlaridan biri Kudzula Kadfiz bo'lib, uning hayoti yengilgan yuechji qabilalari asoslarini batamon tugatish, shuningdek yangi davlatning rivojlanishidagi ulkan hissalarini, qolaversa, davlat hududining geosiyosiy jihatdan kengaytirilishida yukssak baholanadigan ishlarni amalga oshirgan ekanligi bilan xarakterlanadi. Shunday qilib, Kushon davlati Kudzula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka kabi hukmdorlar dabrlarida keng tarzda iqtisodiy-ijtimoiy hamda dunyo miqyosida o'z o'rninegallashda katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

Kushon davlati hukmdori Kanishka davrida mamalakat gullab yashnashi va taraqqiy topishi mamlakat poytaxtining ko'chirilishi bilan izohlandi. Kudzula Kadfizning birlashgan yuechjilardan tortib olgan Baqtriya davlati hududlari qadim-zamonlardan buyon rivojlangan, madaniy jihatdan ahamiyatga ega bo'lganligi uchun Kudzula Kadfiz Kushon davlati poytaxtini shu yerda barpo etgan edi. Kanishka davrida esa Kushon davlatining poytaxti hozirgi Afg'oniston hududiga(Peshovar) ko'chirilishi Kushon davlatining stratigik ahamiyatini

oshirishga, qolaversa, iqtisodiy tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Keyinchalik esa sharqoy Turkiston va shimoliy Hindiston yerlari ham davlat tasarrufiga qo'shib olingach, mamlakat birlashtirilishi, yanada isloh qilinishiga erishildi. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha Yuechji qabilalarining asosi beshta xonadaon asosida boshqaruv shakliga ega bo'lib, Kushon davlati ssoschilari ularni bisqichma-bosqich tarzda davlat tarkibiga birlashtirib, yagina umummilliy davlat shakllantirishda foydalanganlar. Ular quyidagicha:

1. Kushon (Guyshuan);
2. Xyumi;
3. Shuanmi;
4. Xise;
5. Dumii .

Yuqorida nomlari qayd etilgan urug'lar o'z xonadonlarining tinch va osoyishta hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadida Kudzula Kadfiz asos solgan Kushon davlati tarkibiga kirishga majbur bo'lgan, degan qarashlar ham yppq emas. Hukmdor Kanishka davlat taxtiga o'tirgandan so'ng mamlakatda ko'plab islohotlarning boshlanishi kuzatildi. "Milodiy I-II asrlarda Kanishka hukmronligi davrida (milodiy 78-123- yillar) Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Yangi-yangi shaharlar bunyod etildi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Kushon davlati yodgorliklari bolmish Xolchayon, Dafvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa va boshqalarni o'rganish jarayonida aniqlangan topilmalar ham buni tasdiqlaydi".[1] Bu holat ayniqsa hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi sohalarning kebg tarzda rivojlanishida o'z ifodasini ko'rsatadi. Bugungi kunda olimlarning Dalvarzintepa, Surxondaryo, Termiz tarixiga oid qadimiy kitoblar va manbalarda va qolaversa, ilmiy izlanishlar natijasida olib borilayotgan qazilma ishlari Kushon davriga oid kundalik maishiy buyumlar, qal'a yodgorliklari shu jumladan mehmonxona, qabulxona, omborxona va shunga o'xshash joylarning qoldiqlari topib o'rganilmoqda. Eng asosiysi, topilgan manbalarning aksariyati hukmdor Kanishka davroga mansub degan qarashlar ham mavjud bo'lib, Kushon davriga oid bo'lgan ro'zg'orda ishlariladigan xumlar, ko'za, idishlar, zeb-ziyat buyimlari ham ilmiy jihatdan tekshirilmoqda. Milodiy I - II asrlarda Kanishka davrining tub islohotlari Kushon davlatining rivojlanishida katta o'z ahamiyatiga ega ekanlihi bilan ajralib turadi. "Kushon podsholigi markazlashgan quldorlik davlatiga aylandi. Aholi asosan budda dinining Mahayana mashabiga e'tiqod qilgan. Dalvarzintepadan topilgan budda haykali shundan dalolat beradi. Kushon davlatining asoschisi Kujula Katfis tezda Hindistonni bosib oldi va shimoliy Baqtryani o'ziga bo'ysundirdi. Katfis II, ayniqsa, Kanishka podsholigida Kushon davlati kengayib, o'z davrida Rim, Parfiya Xan (Xitoy) saltanatlari bilan tenglashadigan qudratli saltanatga aylandi".[2] Haqiqatdan ham, Kushon davlatining Kanishka hukmdorligi davrida yuksalgan ekanligini isbotlovchi manbalar mavjud bo'lib, Kushon davlati poytaxti Dalvarzintepa hududlarida yoki, Ayritom, Zartepa, Qoratepa kabi hududlarda amalga oshirilayotgan ilmiy ekspiditsiyalar tilga kirib tarixiy haqiqatni so'zlamogda. Kushon davlati rivojlana boshlagan sayih aholining kundalik turmushi ham yaxshi tomonga rivojlana boshlaydi. Buni esa hukmdor Kanishka davrida yerlarning sug'orma dehqonchilik asosida serhosillikka erishilgani, hunarmandchilik shakllarining rivojlana borgani sari savdo-sotiqning ham yuksala borgani ahamiyatlidir. Kanishka hukmronligining eng gullab yashnagan davri deya baholanadi. Buning sabablari quyidagicha

izohlanadi.

1. Kanishkaning davlat poytaxtini Peshovarga, (hozirgi Afg'oniston) ko'chirilishi;
2. Yangi poytaxtning Buyuk ipak yo'li tarmoqlari ustida joylashgan ekanligi;
3. Pul islohoti;
4. Yozuvning joriy etilishi.

Haqiqatdan ham, hukmdor Kanishkaning poytaxtni Peshovarga ko'chirtirishi natijasida Kushon davlati buyuk ipak yo'li tarmoqlaridan biriga aylanib, mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik kabilar rivojlama bordi. Shuningdek, aholi ehtiyojlarini qondirish hamda ortiqcha mahsulotlarni ayrboshlash, sotish uchun esa savdo aloqalarining mustahkam geosiyosiy hududlari lozim edi, Yangi poytaxtning buyuk ipak yo'li tarmoqlarida joylashishi esa ayni muddao bo'lidi deyish mumkin. Shuningdek, mamlakatda iqtisodiy aloqalarning oltin, kumush va mis tangalar asosida amalga oshirilishi ham davlat siyosatining iqtisodiyot rivojiga qo'shgan ulkan hissalaridan biridir deyish mumkin. Manashunday iqtisodiy islohotlar Kushon davlatining Xitoy, Rim, Hindiston kabi boshqa davlatlar bilan madaniy va elchilik aloqalarining rivojlanishiga ham o'ziga xos manba bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sagdullayev A.S, V.A Kastetskiy. Tarix. Qadimgi dunyo. 6 - sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: "Yangi yo'l poligraf servis" - 2013
2. Mamasidikov Abdug'ani. "Kushon davlati davrining madaniyati" maqola. Eurasian journal of academic research innovative academy research support center - 2022

INNOVATIVE
ACADEMY